

IJTIMOIY TARMOQLARDAGI IZOH MATNLARGA XOS NOADABIY UNSURLAR  
VA ULARNING HUDUDIY XOSLANISHI

Yodgorova Husniyabonu

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyot yo'nalishi 1-kurs  
magistranti.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchilar tomonidan qoldirilgan izoh matnlarida uchraydigan noadabiy (obsena, haqoratli, kinoyaviy, so'kinish yoki tajovuzkor) unsurlar tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy e'tibori ushbu unsurlarning shakllanishi, ishlatalish motivlari hamda ularning hududiy (mintaqaviy, dialektal) xususiyatlarga qaratiladi. Shuningdek, izohlarda aks etuvchi muloqot madaniyati darajasi, ijtimoiy muhitga ta'siri va til me'yorlariga zid holatlar tilshunoslik va sotsioligvistik yondashuv asosida o'r ganiladi. Maqolada viloyatidan olingan ijtimoiy tarmoq izohlaridan namunalar tahlil qilinib, ularning hududiy xosliklari aniqlanadi. Ushbu tahlillar orqali internet muloqoti madaniyatini oshirish, tilni muhofaza qilish va onlayn kommunikatsiyada ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy tarmoq, izoh matni, noadabiy unsurlar, mintaqaviy farqlar, dialekt, internet muloqoti, sotsiolingvistika, til madaniyati, virtual muloqot, leksik analiz.

So'nggi yillarda ijtimoiy tarmoqlar insonlar o'rtasidagi asosiy muloqot vositasiga aylangan. Ushbu platformalarda yozilgan izohlar insonning psixologik holati, til madaniyati va ijtimoiy muhitini aks ettiradi. Afsuski, izohlarda ko'plab noadabiy ifodalar, so'kinishlar, kinoyalar va haqoratli so'zlarga duch kelinadi. Bu holat ayniqsa turli hududlarda o'ziga xos shakllarda namoyon bo'ladi. Maqolada ushbu holatlarning leksik-semantik va sotsiolingvistik xususiyatlari yoritiladi.

Ma'lumki, o'zbek tilining leksik boyligida ijtimoiy dialektlar muhim o'r in tutadi va ular turli ijtimoiy qatlama vakillarining ehtiyojlariga xizmat qiladi. Shaxslarning ijtimoiy kelib chiqishi, urf-odatlari, an'analari hamda kasb-korlariga ko'ra shakllangan bu til qatlamlari jamiyatdagi turfa jihatlarni yoritishda muhim manba hisoblanadi.

Ijtimoiy dialektlar, ya'ni adabiy til, hududiy lahjalar va og'zaki so'zlashuv uslublari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning shakllanishi ham shu til ko'rinishlariga tayanadi. Ular odatda ma'lum bir inson yoki ijtimoiy guruhga tegishli bo'lib, o'sha guruhning dunyoqarashi, xatti-harakati va o'ziga xos belgilarini o'rganishda muhim til manbai sifatida namoyon bo'ladi.

Shu bois, ijtimoiy dialektlar turli qatlama qatlardagi insonlarning jamiyatdagi mavqeい va yashash tarzini ifodalovchi o'ziga xos til vositalari bo'lib xizmat qiladi. Tilimizda adabiy me'yorga to'g'ri kelmaydigan qatlama ham mavjud bo'lib, bu so'zlar ko'pincha

# JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH

## VOLUME-8 ISSUE-5 (30- May)

“noadabiy til vositalari” deb ataladi. Bu kabi til unsurlari adabiy uslubda keng qo’llanilmaydi va odatda umumxalq so‘zlashuv tilida ham kamdan-kam uchraydi.

Ijtimoiy tarmoqlardagi til o‘zgarishlarining ko‘p qirrali tahlilini quydagilarda namoyon qiladi:

Madaniy nuqtai nazardan: Zamonaviy ijtimoiy tarmoqlar global madaniyatning qudratli vositachisi sifatida tilga sezilarli ta’sir ko’rsatmoqda. Ayniqsa, ingliz tilidan kirib kelayotgan “like”, “share”, “post”, “comment” kabi atamalar yoshlar va faol foydalanuvchilar orasida keng qo’llanila boshlagan. Bu holat milliy tillarning o‘ziga xosliklarini so‘ndirish xavfini tug‘diradi. Biroq, bu jarayon faqat bir tomonlama emas. Aksincha, ijtimoiy tarmoqlar orqali mahalliy madaniyatga oid yangi so‘z va iboralar ham paydo bo‘lmoqda.

Pedagogik nuqtai nazardan: Ijtimoiy tarmoqlarda yuz berayotgan til o‘zgarishlari ta’lim tizimiga ham sezilarli ta’sir ko’rsatmoqda. Bir tomondan, o‘quvchilar va talabalar ijtimoiy tarmoqlar orqali dunyo tillari va madaniyatları bilan tanishib, o‘z bilim doiralarini kengaytirishmoqda. Masalan, ingliz tilidagi kontentlar orqali chet tilini tezroq o‘zlashtirish holatlari kuzatilmoqda. Ammo ikkinchi tomondan, bu jarayon rasmiy til me’yorlarining buzilishiga ham olib kelmoqda. O‘quvchilar norasmiy yozishmalarda o‘rgangan qisqartmalarni (masalan, “ok”, “k”, “u” = “you”) rasmiy matnlarda ham qo’llash holatlariga yo‘l qo‘yishmoqda. Bu esa ularning grammatik savodxonligiga salbiy ta’sir qiladi va rasmiy va norasmiy uslub o‘rtasidagi chegarani belgilashda qiyinchiliklar tug‘diradi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan: Ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy iqtisodiyotga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Yangi til birliklarining paydo bo‘lishi marketing va reklama sohasida innovatsion yondashuvlarni shakllantirmoqda. Masalan, kompaniyalar maqsadli auditoriyaga mos keladigan, trendga aylangan iboralar (“trending”, “viral”, “sotuvdagi bomba”) orqali iste’molchini jalb qilishga intilmoqda. Bu esa SMM-menejer, kontent-kreator, brend-ambassador kabi yangi kasblarning ommalashuviga sabab bo‘ldi. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlardagi til tendensiyalari yangi iqtisodiy faoliyat yo‘nalishlarini yuzaga chiqarmoqda. Tarjimonlik xizmatlari, onlayn til o‘rgatish platformalari, videoblogerlik, raqamli dizayn va kontent ishlab chiqish bozorining kengayishi bunga misol bo‘la oladi.

Tilshunoslik nuqtai nazardan: Ijtimoiy tarmoqlarda paydo bo‘layotgan yangi til shakllari tilshunoslari uchun tadqiqot obyekti bo‘lib xizmat qilmoqda. So‘z yasashda esa klassik usullar – affiksatsiya (“layklamoq”), kompozitsiya (“selfi-tayoq”) va qisqartmalar (“rep” – repost) keng qo’llanilmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlar orqali kirib kelayotgan yangi so‘z va iboralar tildagi o‘zgarishlarga turli sohalar – madaniy, psixologik, pedagogik, iqtisodiy, tilshunoslik va sotsiologik jihatdan kuchli ta’sir ko’rsatmoqda. Bu jarayon tilning evolyutsiyasida muhim bosqich bo‘lib, unga nafaqat tahdid, balki imkoniyat sifatida ham yondashish

# JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH

## VOLUME-8 ISSUE-5 (30- May)

zarur. Asosiysi, til o'zgarishlarini chuqur tahlil qilib, milliy til va madaniyatni saqlagan holda zamonaviy raqamlari muhitga moslashuv yo'llarini topish muhim vazifadir.<sup>52</sup>

Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda yuz berayotgan til o'zgarishlari nafaqat so'z boyligini oshiribgina qolmay, balki muloqot uslubi va madaniyatiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Bu jarayon yosh avlod tiliga yangi rang-baranglik va o'ziga xoslik olib keladi, shu bilan birga, tilning dinamik va doimiy ravishda rivojlanishini ta'minlaydi. Shu bois, zamonaviy jamiyatda ijtimoiy tarmoqlarning tilga bo'lgan ta'sirini o'rganish va unga mos ravishda til siyosati va madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, jamiyatda yashovchi insonlar doimo ijtimoiy aloqalarga kirishar ekan, ular bir-birlari bilan muloqot jarayonida so'zlarni o'zlashtirib, ularni o'z nutqida takroran qo'llashga moyil bo'ladi. Ushbu o'zlashtirilgan so'zlar nafaqat og'zaki, balki yozma muloqot shakllarida — xususan, shaxsiy yozishmalarda ham o'z ifodasini topadi. Har bir inson nutqida turli hududlarga xos sheva elementlari bo'lgan so'zlardan foydalangani kabi, ba'zida vulgarizm va varvarizm deb ataluvchi tildan chetda qolgan so'zlarni ham ishlatadi.

Bu o'rinda, avvalo, "vulgarizm" va "varvarizm" atamalarining mohiyatiga qisqacha to'xtalib o'tish zarur. "Vulgarizm" atamasi lotinchcha "vulgaris" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "oddiy" yoki "omma orasida ishlatiladigan" degan ma'nolarni anglatadi. Tilshunoslikda esa vulgarizmlar — odatda adabiy til me'yorlariga to'g'ri kelmaydigan, dag'al yoki qo'pol so'zlar va iboralardan iborat bo'ladi. Bunday so'zlar rasmiy yoki madaniy nutqda o'rinali deb topilmasa-da, ba'zan adabiy asarlarda personajning xarakterini aniqroq tasvirlash yoki hayotiylik berish maqsadida uslubiy vosita sifatida ataylab ishlatiladi.

Shuni ham aytish joizki, jargon – bu ma'lum kasb, ijtimoiy mavqe, yosh yoki qiziqishiga qarab shakllangan ijtimoiy guruhlarga xos, asosan og'zaki nutqda qo'llaniladigan, ko'pincha boshqa odamlar uchun tushunarsiz bo'lgan so'zlar va iboralar majmuasidir. Masalan, dasturchilar jargoni, talabalar jargoni, yoshlar yoki harbiylar jargoni, shuningdek, o'g'rilar yoki sahna san'atkori jargoni mavjud.

Jargonlar tarkibi boshqa tillardan kirib kelgan o'zlashma birliklar bilan boyib boradi va ular tez-tez yangilanadi. Ayrim soha vakillari nutqiy tejamkorlik, qulaylik yoki guruhg'a mansublikni bildirish uchun jargon so'zlardan foydalanadilar.

Argo esa – bu ham kasbiy, ham sotsial guruhlar tomonidan shakllangan maxfiy yoki boshqa guruh vakillariga tushunarsiz bo'lgan nutq shaklidir. Argo ko'pincha turli tillar elementlarining qorishmasidan tashkil topgan bo'lib, asosan kommunikatsiya predmetini yashirish maqsadida ishlatiladi.

Masalan, o'g'rilar argosi: mandarin (tilla), akula (panjarani kesuvchi moslama), kalamush (yaqinlariga xoinlik qiluvchi), urkagan (tajribali o'g'ri).

<sup>52</sup> Nurmuxamedova, G. (2022). Ijtimoiy tarmoqlarda muloqotning etika masalalari. O'zbek tili va adabiyoti jurnali, 3, 34-42.

**JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH**  
**VOLUME-8 ISSUE-5 (30- May)**

Argo so'zlar geografik joylashuv, guruhning turmush tarziga qarab farqlanadi. Ular asosan og'zaki nutqda, ba'zida esa badiiy adabiyotda sotsial-ramziy vazifani bajarish uchun ishlatiladi.

Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar va xususiy yozishmalarda uchraydigan vulgarizm so'zlar muallifning yozishayotgan shaxsga nisbatan shaxsiy munosabatini, kayfiyatini yoki emotsiyal holatini ifodalash vositasi sifatida ham xizmat qilishi mumkin. Bu holat tilning faqat aloqa vositasi emas, balki psixologik va ijtimoiy holatlarning ham ifodachisi ekanligini ko'rsatadi.

Noadabiy til birliklarini leksik jihatdan tahlil etadigan bo'lsak, bu tasnif yanada aniqlashadi. Til birliklari iste'mol sohasi nuqtai nazaridan turlicha bo'lib, ularning bir qismi umumiylahol tomonidan qo'llanilsa, boshqalari faqat ma'lum kasb egalari yoki muayyan hudud aholisi tomonidan ishlatiladi.

Til insonning ijtimoiy hayotidagi o'rnini, shaxsiy dunyoqarashini va ruhiy holatini namoyon qiluvchi vosita sifatida turli jihatdan namoyon bo'ladi. Shuningdek, turmush tarziga, mintaqaviy madaniyatga va ijtimoiy odatlarga bog'liq holda til birikmalarining qo'llanilish shakli farq qiladi.

Noadabiy til birliklari — ya'ni madaniy-axloqiy me'yorlarga mos kelmaydigan, asosan og'zaki nutqda hissiy holatni bildiruvchi ifodalar — har bir hududda o'ziga xos tarzda shakllanadi va qo'llanadi.

Toshkent shahri: Toshkent — O'zbekistonning poytaxti bo'lib, u yerda ko'p millatli va ko'p tilli muhit shakllangani sababli, noadabiy so'zlar va iboralar ko'p hollarda xorijiy tillar, ayniqsa rus va ingliz tillaridan kirib kelgan. Aholi, ayniqsa yoshlar o'rtasida, ushbu tillarda ishlatiladigan ba'zi so'zlar hissiy holatni ifodalash yoki norozilik bildirish maqsadida aralash nutqda uchraydi. Bu holat global til madaniyatining lokal nutqqa kirib kelishining yorqin misolidir.

Farg'ona vodiysi: Farg'ona vodiysi hududida esa noadabiy til birliklari ko'pincha shevaga asoslangan, kinoyali va ko'p ma'noli ifodalar tarzida uchraydi. Bu mintaqada kamsitish, tanqid yoki istehzoni bildiruvchi iboralar o'ziga xos urg'ular, qiyoslovlari mahalliy lajhalar yordamida beriladi. Bunday iboralar nafaqat mazmuni, balki ohangi orqali ham tanbeh yoki istehzoni yetkazadi. Ular odatda mintaqaviy madaniyat va nutqiy an'analar bilan uzviy bog'liq bo'ladi.

Qashqadaryo viloyati: Qashqadaryo viloyatida noadabiy til elementlari ko'proq odatdag'i og'zaki uslub, keskin tanbeh va emotsiyal ohangda ifodalanadi. Bu yerda gapiruvchilar odatda kuchli ta'sir o'tkazish yoki ayblov bildiruvchi nutq shakllaridan foydalanadi. Odatda, bunday so'zlar kattalar tomonidan aytilib, yoshlarni ogohlantirish yoki tarbiyaviy maqsadda ishlatiladi. Nutqdagi intonatsiya, kuchaytiruvchi so'zlar va urg'u orqali hissiy yuklama beriladi.

Umuman olganda, O'zbekiston hududlarida noadabiy til birliklari turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Ularning shakllanishi va ishlatilishi ijtimoiy-madaniy muhit, til ta'sirlari va nutqiy odatlarga bog'liq. Shu bois, bunday birliklarni o'rganishda faqat lingvistik jihatdan emas, balki mintaqaviy, sotsiolingvistik va

madaniy kontekstda ham tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Har bir hududdagi noadabiy til shakllari shu yerda shakllangan kommunikativ madaniyatni va jamiyatda rasmiy bo'limgan nutqning ijtimoiy rolini ochib beradi.<sup>53</sup>

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlarda kuzatilayotgan noadabiy unsurlar ko'plab ijtimoiy va tilshunoslik muammolarini yuzaga chiqaradi. Ularning hududiy xoslanishi orqali esa har bir mintaqaning muloqot madaniyatiga doir o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash mumkin. Virtual muloqotda axloqiy-me'yoriy normalarni targ'ib etish orqali jamiyatda ijtimoiy salomatlikni ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Karimov, S. (2020). Zamonaviy til madaniyati va internet muhitida muloqot. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Rashidova, M. (2019). O'zbek tilining leksik-semantik tizimidagi obsena birliklar. Tilshunoslik jurnali, 2, 45–57.
3. Iskandarov, I. (2021). Sotsiolingvistika asoslari. Samarqand: Ilm ziyo.
4. Holmes, J. (2013). An introduction to sociolinguistics. London: Routledge.
5. Crystal, D. (2011). Internet linguistics: A student guide. London: Routledge.
6. Nurmuxamedova, G. (2022). Ijtimoiy tarmoqlarda muloqotning etika masalalari. O'zbek tili va adabiyoti jurnali, 3, 34–42.
7. Yusupov, A. (2018). Til va jamiyat: o'zaro ta'sir mexanizmlari. Tilshunoslik axborotnomasi, 1, 12–20.

<sup>53</sup> Yusupov, A. (2018). Til va jamiyat: o'zaro ta'sir mexanizmlari. Tilshunoslik axborotnomasi, 1, 12–20.